

STAGES OF THE PROCESS OF TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abdullayeva Diloromxon No'monovna
Kokand DU is a Teacher

Abstract

This article analyzes the main stages of the teaching process of primary school students based on the age characteristics of primary school students. The importance of logical chain in the educational process from the perception of knowledge to its application in practice is highlighted.

Keywords: Primary education, stages of learning, comprehension, comprehension, reinforcement, visuality.

Introduction

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISH JARAYONINING BOSQICHLARI

Abdullayeva Diloromxon No'monovna
Qo'qon DU o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish jarayonining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida bilimlarni idrok etishdan boshlab, ularni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan mantiqiy zanjirning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qitish bosqichlari, idrok etish, tushunish, mustahkamlash, ko'rgazmalilik.

Boshlang'ich ta'lim shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada o'qishga bo'lgan munosabat, dunyoqarash va mustaqil bilim olish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinif o'quvchilarining psixofiziologik holati (diqqatining beqarorligi, xotirasining obrazliligi) dars jarayonini muayyan

bosqichlar asosida tashkil etishni taqozo etadi va ta'lim samaradorligini oshirishda o'qitish bosqichlarining o'rnini ko'rsatib berishdir.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

1. O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:
2. o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
3. uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
4. bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
5. hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan ob'yekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va faqmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik

qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati - bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayoni o'ziga xos mantiqiy izchillikka ega bo'lib, u bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga to'la mos kelishi lozim. Bilimlarni idrok etishdan boshlab, ularni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan har bir bosqich zanjirning uzviy qismlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, "Sano-standart" nashriyoti
2. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU. 2012.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019
4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 151-154.
5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.

6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.
7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.
8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С
9. ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55. Madina, N. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CIRCULATION IN THE TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS ON THE BASIS OF INDICATIVE EDUCATIONAL MODELS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(11), 144-146.
10. Мадина, Н. (2024). Педагогические условия совершенствования системы циркуляции в подготовке будущих специалистов на основе показательных образовательных моделей. *Евразийский журнал академических исследований*, 4 (11), 144-146.
11. Nurmatova, M. O., & Abdullayeva, D. N. (2025). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA O 'QITUVCHILIK MAXORATNING TUTGAN O 'RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, 3(5 (1)), 213-218.
12. Зияев А.Н., Хушназарова М.Н., Меликузиева М.А., Абдулладжанова С.А., Абдуллаева Д., Нурматова М. и Екубьонова Г.Х. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. *CAHIERS MAGELLANES-NS*, 6 (2), 7938-7944..
13. Gulyamova, Z. R., & Nurmatova, M. O. (2014). FEATURES OF THE FUNCTIONING AND WORD FORMATION OF SLANG UNITS. *The Way of Science*, 45.